



**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**


2022- YIL YANVAR-NOYABR




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-noyabr oylarida)

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 10625,6 mln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 57,7 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 14,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 10,2 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 68,7 mln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6128,7 mln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 57,7 % ni tashkil etdi.


2021- yil yanvar-noyabr

55,6 %

2022- yil yanvar-noyabr

57,7 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,6 % ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 3,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,5 % (4,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,4 % (18,2 %) va quyi texnologiyali – 75,5 % (73,7 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,6 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 131,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 9,8 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,5 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 66,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,7 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 70,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,6 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 65,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa




Kepak




Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar




O‘simlik yog‘i (tozalangan)



Yumshoq bug‘doy va spelta uni




Sellyuloza




* yanvar-noyabr yirik korxonalar bo‘yicha


Aroq




Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar




Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2022- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 16,2 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 11,6% ga oshgan), 1,2 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (27,6 % oshgan) hamda 57,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (14,5 % ga oshib) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	20947	18503	-2444
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar , tonna	945	1205,3	260,3
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	14,5	16,2	1,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	50,2	57,5	7,3
Paxta tolasi, ming t.	18,2	25,5	7,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	4,8	3,2	-1,6


yanvar-noyabr yirik korxonalar bo'yicha

Metallurgiya sanoati

2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 53,7 % ga kamaygan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % gacha kamaydi, fizik hajm indeksi esa, 82,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 23,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 209,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,2 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 598,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 23,4 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1778,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 67,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 42,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 132,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 22,3 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1973,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 127,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 %, fizik hajm indeksi 105,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 296,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 134,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 100,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 48,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2021- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 69,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni, fizik hajm indeksi 131,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 284,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 126,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 52,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 109,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4370,0 mln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,1 %) ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,2 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	14345,5	15089,1	743,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	136,9	183,8	46,9

yanvar-noyabr yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,3 mln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %) ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-noyabr	2022-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	38,2	36,3	-1,9
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	28,8	63,1	34,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 5,1 % ga pasaygan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 119,3 % ga o'sishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4561,5 mln. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 124,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-noyabr

34,8%

2022- yil
yanvar-noyabr

35,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-noyabr

65,2%

2022- yil
yanvar-noyabr


64,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,5 % (2021- yil yanvar-noyabr oylarida 118,2 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 38,4 % , Guliston shari 17,4 % , Yangiyer shahri 9,8 % hamda Mirzaobod tumani 8,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (124,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod (175,0 %), Yangiyer shahri (160,2 %), Sayxunobod tumani (144,7 %) hamda Boyovut tumanida (142,6 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 38,4 %, shuningdek, Guliston shahri 17,4 % ni, Yangiyer shahri 9,8 % ni, Mirzaobod tumani 8,4 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 50,5 %, shuningdek, Guliston shahri 11,9 % ni, Guliston tumani 9,8 % ni, Mirzaobod tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

1116,7 mlrd. so'm


2020-yil yanvar-noyabr

2393,8 mlrd. so'm


2021-yil yanvar- noyabr

2926,9 mlrd. so'm

2022-yil yanvar- noyabr




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to'g'ri kelib, 27,2 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 16,8 % ni, Sayxunobod tumani esa 12,8 % ni tashkil etdi.





o'sish sur'ati
mlrd. so'm

1111,1 mlrd. so'm
2020-yil yanvar-noyabr

1279,9 mlrd. so'm
2021-yil yanvar-noyabr




1634,6 mlrd. so'm
2022-yil yanvar-noyabr



Sirdaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari


Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahriga to'g'ri kelib, 39,2 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 21,4 % ni, Guliston shahri esa 9,1 % ni va Yangiyer shahri 6,6 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyati




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahri (217998,6 ming so'm), Sirdaryo tumani (17082,1 ming so'm) hamda Yangiyer shahrida (15346,0 ming so'm) o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (12001,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Sirdaryo viloyati



o'sish sur'ati
ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3385,4 mln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,9 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 5152,0 ming so'm bo'lgani holda, Sirdaryo tumanida– 13138,2 ming so'mni, Yangiyer shahrida– 9778,1 ming so'mni va Guliston shahrida– 8259,4 ming so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 2298 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 561 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 24,4 %) Guliston shahriga, 369 tasi (16,1 %) Sirdaryo tumaniga, 196 tasi (8,5 %) Yangiyer shahriga, 194 tasi (8,4 %) Boyovut tumaniga va 194 tasi (8,4 %) Mirzaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

